

УЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ
(Энг цадимги замонлардан ^озиргача)

мавзусида Республика мицёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ
2024 йил 10 май

Бухоро - 2024

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шахарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилаётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғликлигини қучайтириш максадида Бухоро давлат университетида **2024 йил 10 май** куни **“БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ” (ЭНГ КАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ^ОЗИРГАЧА)** мавзусидаги Республикао микёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш максадида утказилди.

Ушбу илмий туплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан кизикувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мулжалланган

Масъул мухаррир:

БухДУ профессори, тарих фанлари доктори

Х.,Х.,Тураев

Тахрир хайъати ва аъзолари:

О.Х.Хамидов - Бухоро давлат университети ректори, и.ф.д., профессор Т.Х.Расулов - илмий ишлар ва инновациялар буйича проректор, ф.ф.д., профессор А.А.Болтаев - Тарих в юридик факультети декани, ф.ф.д., доцент Ф.У.Темиров - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири, т.ф.ф.д (PhD) доцент С.И.Иноятов - Бухоро давлат университети профессори, т.ф.д.

М.И.Ниязова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

М.Б.Курбонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

Ф.Д.Бобоҷонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

А.А.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.ф.д (PhD)

Б.Б.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта уқитувчиси, т.ф.ф.д

(PhD) О.И.Ражабов - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта уқитувчиси,

Ш.У.Носиров - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси уқитувчиси,

Тупловчи ва нашрга тайёрловчилар:

Темиров Ф.У. - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири

Умаров Б.Б. - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси уқитувчиси

Носиров Ш.У.- Археология ва Бухоро тарихи кафедраси уқитувчиси

Мазкур туплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2024 йил 4 майдаги

9 - сонли карори билан нашрга тавсия килинган.

Илмий-амалий анжуман материалларида ёритилган тарихий жараёнлар, маълумотлар, чиқарилган хуносалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг узлари масъул ва жавобгардир

**Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан
хозиргача) AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TIJORAT VA SAVDO
MARKAZLARIGA E'TIBOR**

**Islomova Gulchiroy Muzaffar qizi Buxoro
davlat universiteti, 4-kurs talabasi Ilmiy
rahbar: Utayeva F.X.- Buxoro davlat
universiteti dotsenti, t.f.f.d. (PhD)**

Muarixlar va sayyoqlar XIV asr oxiri-XV asrda Samarqand Buxoroda bozor, chorsu, tim, toqi va boshqa hil savdo-hunarmandchilik maskanlari bo'lganidan habar berishadi. Ularning har birida asosan muayyan bir mol bilan savdo qilishgan. XVI asr boshlarida esa Zahiriddin Muhammad Bobur Amir Temur zamonasida vujudga kelgan tartibni qayd etib, shunday yozgan: Savdo binolari qurilishiga katta ahamiyat bergen Amir Temurning farmoniga binoan, avvalambor shaharning savdo imkoniyatlarini kengaytirish hisobiga Samarqand ancha ta'mir etilgan. Butun shahar bo'ylab keng ko'chalar o'tkazilgan va ikki tomoniga do'konlar joylashtirilgan.

Ixtisoslashtirilgan shu hil bozorlar Buxoroda ham bo'lgan. Buxoroda 1558- yilning oxirida bo'lgan ingliz savdogarlari vakili Antoni Jenkinson kundaligida bu yerda har bir kasb - hunar o'zining alohida o'rni va alohida bozoriga ega, deb yozgan. Savdo rastasining nomi odatda unda sotiluvchi tovar nomi bilan atalgan. Ya'ni, savdo joylarining ko'plab xil nomlari ularning vazifasini aks ettirgan. Ular birinchi navbatda mahalliy aholi ehtiyojini qondirish uchun mo'ljallangan. Atrof qishloqlarning aholisi, shuningdek, yaqin tevarakdag'i dashtlarda yashovchi ko'chmanchilar ham shu yerga kelishgan. Samarqand va Buxoro kabi shaharlarning, qishloq joylar bilan hunarmandchilik buyumlari, hom ashyo va yarim hom ashyo oldi-berdisi bo'yicha yaqin savdo aloqalariga ega bo'lganidan dalolat beradi¹.

Masjid, madrasa, hammom kabi binolar odatda bozor bilan yonma-yon joylashgan. Hammom ham cho'milish-yuvinish joyigina bo'lmanan, bu yerga orif kishilar to'planib, bilimlarini baham ko'rishgan, o'zlarini qiziqtirayotgan muammolar hususida bahs yuritishgan.

Bozor savdo va hunarmandchilik markazigina bo'lib qolmagan, bu yerga oldi-sotdi uchungina kelishmagan. U uchrashuv va muloqotjoyi, o'ziga hos madaniy markaz edi. Xilma - xil maishiy ehtiyojlar shu yerda qondirilgan². Yo'llar tarmog'i O'rta Osiyo shaharlarini Hindiston, Eron, Afganiston, Xitoy, Kavkazorti, Turkiya, Volga buyi markazlari bilan bog'lagan. Iqtisodda savdo qanday katta ahamiyatga egaligini Amir Temur yahshi tushungan. Ko'plab yurishlarida dam savdo markazlari va asosiy yo'llarni qo'lga kiritishga uringan. Ayrim yurishlari Samarqandning savdo maydonidagi raqiblarini yo'qotishga qaratilgan. Shuningdek, biron shaharni egallaganida Temur uni savdo maqsadlarida foydalanish imkoniyati, xalqaro savdodagi o'rni, shujoydan olish mumkin bo'lgan savdo bojining miqdori nuqtai nazaridan baholagan^{1 2 3}

Kichik Osiyodalik paytida Amir Temur farang qiroli Karl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan diplomatik yozishmalarida o'z davlati bilan G'arb mamlakatlari o'rtasida muntazam savdo munasabatlarini o'rnatish istagini bildirgan. Boshqa mamlakatlar bilan savdo aloqalari mustahkamlanishiga bog'liq holda karvonsaroylar qurilishi ham kengayib borgan. Amir Temurning buyrug'iga binoan janubi-g'arbiy viloyatlardan Samarqandga olib boruvchi yo'llar yoqasida naq davlat poytaxtiga qadar shundaygina dalaning o'zida yangi karvonsaroylar barpo qilingan, sayyoqlar va savdogarlar dam olishi uchun katta uylar va otxonalar qurilgan.

Karvonsaroylarning bir qismi shaharga ketaverardi, darvoza yonida, ayrimlari shahar ichida joylashgan. Ul ar odatda xom g'ishtdan, ba'zilarigina pishgan g'ishtdan qurilgan. Ayrim

¹ Amir Temurjahon tarixida.Ma'sul muharrir: H.Karomatov.Muall iflar jamoasi: S.Saidqosimov , A.Ahmedov, B.Ahmedov va boshqalar.To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri. -T.: "Sharq", 2001.-B-307.

² Mirzo Ulug'bek.To'rt ulus tarixi.Fors tilidan B.Axmedov,N.Norqulov va M.Hasaniylar tarjimasi.Toshkent,1994.- B-19

³ Murtazaeva R.H. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. -T.: Akademiya, 2010.-B-42.

Республика мицёсидаги илмий-амалий конференция

hollarda ko'p hujrali va ayniqsa shahar ichida ikki qavatli bo'lgan. Odatta bir qavat omborxonalardan, ikkinchi qavat turarjoy xonalaridan iborat Karvonsaroy o'tasi hovli bo'lgan.⁴

Samarqand, Buxoro va O'rta Osiyoning boshqa yirik shaharlarida asosan har bir mamlakat yoki shaharlardan kelgan mahalliy savdogarlar to'xtovchi ayrim karvonsaroylar bo'lgan. Natijada boshqa o'lkkalar - Hindiston, Xorazm, Volgabuyi va hokazo yerlardan kelgan savdogarlar uchun alohida karvonsaroylar qurilgan. Buxoroda urganchliklar joylashuvchi Urganjiy karvonsaroyi, shuningdek, eronlik va marylik savdogarlar uchun alohida karvonsaroylar bo'lgan.

O'rta Osiyo shaharlari Hindiston, Garbiy Osiyo, Sharqiye Yevropo va Uzoq Sharq mamlakatlari bilan keng ko'lamda savdo-sotiq ishlari olib borishgan. Uzoq, yaqin o'lkalarning elchilari Samarqandga turli-tuman sovg'a bilan kelishgan. Ibn Arabshox kitobida ulardan ayrimlarini ko'rsatib o'tadi. Masalan, u 820 (1417) yili Xitoy elchilari olib kelgan sovg'alar ro'yxatida uchraydi. XV asr o'rtalarida Buxoroga boshqa buyumlar qatorida kimhob ham keltirilgani to'g'risida Antoni Jenkinson yozib qoldirgan, kimhobning bir turi Samarqandda ishlab chiqarilgan bo'lishi mumkin.⁵

Ki mhobdan tikilgan kiyim ham matoning uzi kabi hukmdorlar beradigan co'g'aga aylangan. Temuriy hukmdorlar alohida xizmat ko'rsatgan amirlarni kimhob bilan mukofotlashgani. Amir Temurning buyrug'iga binoan uning huzuriga keluvchi elchilarga nafaqat etib kelishganida, balki yul-yulakay ham kimhob kiyim sovg'a qilingan. Amir Temurning qo'l ostidagi barcha shaharlarda to Samarqandga yetib borgunga qadar mahalliy amirlar boshqa mamlakatlarning elchilariga sovg'a berishlari hamda ularga Amir Temur saroyiga tezroq yetib borishlari zarurligini eslatib turishlari lozim bo'lgan. Kastiliya qirolining elchilariga yo'lda ham, Amir Temurning qabulida ham kimhob kiyimlar sovg'a qilingan.

Moskvaga Buxorodan olib borilgan mollar ro'yxatida xilma-xil matolar guruhi ichida "Zandani" degan umumiy nom bilan atalgan matolar bo'lgan⁶. Buxoroning zandanacha matosining xorjjdag'i savdosi Amir Temur davrida ham yuqori ahamiyatga ega bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, Hunarmandchilik ishlab chiqarishi, savdo va madaniyat sohasidagi yutuqlar almashinuvi rivojlangan. Savdo va tijosat sohasidagi yutuqlar mamlakatni xorijiy davlatlar bilan bog'lagan. Buyuk ipak yo'lining rivoji ya'nada yuksalgan. Mavarounnahrda ilm-fan yanada rivojlanishiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatmay qolmagan.

1. Курбонова, Д. Н. (2024). ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ GOOGLE DOCS И РЕДАКТИРОВАНИЯ ФАЙЛОВ В СРЕДЕ GOOGLE. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 44(4), 108-113.
2. Soliyevna, S. S. (2024). SO‘G‘D KONFEDERATSIYASINING SHAKLLANISH JARAYONI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 20(4), 174-180.
3. Kholmamatovna, U. F. (2024). CREATION OF THE PLACE OF SPECIALISTS AND JOB IN THE TEXTILE INDUSTRY. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 20(4), 189-197..
4. Axmatovna, J. N. (2024). QUYI ZARAFSHON VOHASI AHOLISINING YER-SUVDAN FOYDALANISH BILAN BOGLIQ AN'ANALARI (XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARI). *Лучшие интеллектуальные исследования*, 20(4), 181-188..

⁴ Ziyoyev H.Tarixning ochilmagan sahifalari.- T.: "Mehnat", 2003. - B-232 .

⁵ Ziyoyev H. Tarix -o'tmisht va kelajak ko'zgusi (Tarixning dolzarb masalalari). - T.: "Adabiyot va sa'nat", 2000.- B-9

⁶ Arabshoh.Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taqmur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari).1k.,Toshkent,1992,-B-132

Республика мицёсидаги илмий-амалий конференция

5. Utayeva, F. (2023). ТО'QIMACHILIK FABRIKASIDA AHOLINING ISH BILAN TA'MINLANISHI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*), 41(41).
6. F Utayeva BUXORO IP-GAZLAMA KOMBINATINING QURILISH TARIXI VA ISHLAB CHIQARISH FAOLIYATI ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*), 2023
7. Utayeva, F., & Muxamedjonova, M. (2024). TO 'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O 'RNI. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 49-49.
8. F Utayeva, B Safarov ИСТОРИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА И ПРОИЗВОДСТВЕННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ БУХАРСКОГО ПРЯДИЛЬНОГО-ТЕКСТИЛЬНОГО КОМБИНАТА *Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, 2023